

Tibbiy tekshiruv maxsus tibbiy muassasada o'tkaziladi. Tibbiy komissiyadan o'tish xizmati – pullik.

Maishiy xizmat ko'rsatish va umumovqatlanish sohasida (kafe, bolalar bog'chalari, mehmonxonalar, maktablar va hokazo) **ishlash uchun**, shuningdek, **TIBBIY DAFTARCHA** rasmiylashtirish zarur. Tibbiy daftarchani tibbiy komissiyadan o'tiladigan erda pul to'lab rasmiylashtirish mumkin.

Barcha zarur ma'lumotlar va sertifikatlarni olganingizdan so'ng siz ISHLASH UCHUN PATENTni rasmiylashtirishga hujjat topshirishingiz zarur!

Patent rasmiylashtirish uchun hujjatlar topshirish muddati – Rossiyaga kelgandan so'ng 30 kun davomida. Bunga albatta rioya qilish zarur, yo'qsa, 10000 dan 15000 rublgacha **jarima** to'lashga to'g'ri keladi. Patentda ko'rsatilgan ixtisosdan boshqa ishda ishlaganlik uchun jarima solishlari mumkin – 4000 dan 7000 rublgacha.

Patent bo'yicha faqat uni olgan mintaqangisidagina ishlash mumkin!

Unutmang: Rossiyada faqat 18 yoshga to'lganlarga ishlashlari va patent olishlari mumkin!

RF Prezidentining 15.06.2021 dagi № 364 farmoniga muvofiq 31.12.2021 y. nuddatigacha chet ellik fuqarolar ishlash uchun patentni rasmiylashtirish muddatlari cheklolari va kelish maqsadlarini hisobga olmasdan patent rasmiylashtirishlari mumkin.

Буклет «Миграционное законодательство и ответственность за его нарушение. Советы трудовым мигрантам» (на узбекском языке)

Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»

Авторы-составители: Хлызова Д.В., Якимов А.Н.

Редактор: Панич Б.Л.

Тираж 2000 экз.

Изготовлено в рамках проекта «Школа мигранта. Добро пожаловать в Ленинградскую область!» Комитета по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области.

Har bir mintaqada patent rasmiylashtirish uchun hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan yagona tashkilot bor: **Leningrad viloyatida, bu ФГУП «Паспортно-визовый сервис» МВД России spb.pvsmvd.ru**

Ishlash uchun patentni rasmiylashtirish muddati– 10 ish kuni. Olingan patent asosida muhojirlik qaydi (registrasiya)ni uzaytirish zarur.

Patent bo'yicha ishlash uchun siz navbatdagi har bir ish oyi uchun **qaydga olingan soliq to'lovi** (NDFL) to'lashingiz zarur. To'lovni birdaniga bir necha oy uchun amalga oshirish mumkin.

Leningrad viloyatida 2021 yilda avans to'lovi oyiga 4000 rublni tashkil etadi.

Patentning amal qilish muddati tugagach Rossiyadan chiqib ketish yoki patentning amal qilish muddati tugashiga **10 ish kunidan** kechiktirmasdan отделении по вопросам миграции УВМ МВД РФ da patentni qayta rasmiylashtirish zarur. **Ishlash uchun patentni bir necha martadan qayta rasmiylashtirish mumkin.**

Patent rasmiylashtirish uchun qanday hujjatlar kerakligi, uni olish va uzaytirish tartibi haqida УВМ ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области ning rasmiy saytida mufassal tanishishingiz mumkin – 78.мвд.рф/ms

5. Ish topganingizdan so'ng, ish beruvchi bilan albatta **MEHNAT yoki FUQAROLIK-HUQUQIY SHARTNOMA IMZOLANG.** Shuningdek ish beruvchi unda 5 kundan ko'p shartnoma asosida ishlayotgan har bir ishchiga **MEHNAT DAFTARCHASI** rasmiylashtirishi zarur.

Patent olganingizdan so'ng 2 oy orasida siz Rossiya IVning Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati bo'yicha Muhojirlik masalalari boshqarmasiga mehnat shartnomasining nusxasini buyrtma xat bilan topshirilganiga oid bildiruvni qo'shib yuborishingiz yo shartnomani shaxsan olib borishingiz zarur, yo'qsa, sizning patentingizni haqiqiy emas deb hisoblashlari mumkin.

DIQQAT! Ishlash uchun patentga muntazan to'lovni va shuningdek patent uchun to'lov amalga oshirilgan muddatga qarab muhojirlik qaydini uzaytirishni unutmang.

MUHOJIRLAR UCHUN DAVLAT QO'LLOVI VA XIZMATLARI

Комитет по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области:
sayt: msu.lenobl.ru
tel.: 8 (812) 539-52-33

Управление по вопросам миграции ГУ МВД России по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области:
sayt: 78.mvd.ru/ms
tel. 8 (812) 573-37-22, 8 (812) 573-30-02

Паспортно-визовый сервис МВД России, филиал по Санкт-Петербургу и Ленинградской области:
sayt: spb.pvsmvd.ru
tel.: 8 (812) 318-01-22

Многофункциональный центр предоставления государственных и муниципальных услуг (МФЦ) Ленинградской области:
sayt: mfc47.ru
tel.: 8 (800) 500-00-47

Бепул huquqiy yordam

«ПСП-фонд»: xayriya jamg'armasi:
8 (812) 337-57-85, 8 (953) 141-31-09, psp-f.org, vk.com/pspfond

Foydali ma'lumotlar

migrantlenobl – Комитета по местному самоуправлению, межнациональным и межконфессиональным отношениям Ленинградской области ning Mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari uchun «Dobro pojalovat v Leningradskuyu oblast!» mobil ilovasi va sayti

migrussia.ru – «Migrasuya I migranti» (muhojirlar va ular bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun axborot portali - moslashuv va huquqiy qo'llovga oid bir necha tildagi maslahatlar, axborot materiallari, davlat va ijtimoiy tashkilotlarning foydali mulqot qilish vositalari)



КОМИТЕТ ПО МЕСТНОМУ САМОУПРАВЛЕНИЮ, МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫМ И МЕЖКОНФЕССИОНАЛЬНЫМ ОТНОШЕНИЯМ ЛЕНИНГРАДСКОЙ ОБЛАСТИ



migrantlenobl

Leningrad viloyatiga xush kelibsiz!

MEHNAT MUHOJIRLARIGA MASLAHATLAR

Muhojirlik qonunchiligi va uni buzganlik uchun javobgarlik

Agar Siz Leningrad viloyatiga ishlash uchun kelgan bo'lsangiz, unda barcha muhojirlik hujjatlarini qonuniy tarzda rasmiylashtirishingiz zarur

Diqqat! Hujjatlarni rasmiylashtirishda vositachilar, brigada boshliqlari, tanishlarga murojaat etmang! Ular ko'pincha qalbaki hujjatlarni rasmiylashtirishadi, buning uchun siz jarima to'lashingiz va hatto Rossiyaga kirishga ta'qiq qo'yishlari mumkin!

Haqiqiy, oshkora hujjatlarni olish uchun faqat davlat muassasalariga murojaat etmoq zarur.

Rossiyaga kirib kelganingizdan keyin, qonuniy turmoq va ishga joylashish uchun quyidagi hujjatlarni rasmiylashtirishingiz zarur:

1. Chegaradan o'tayotganingizda sizga **MUHOJIRLIK KARTASINI** rasmiylashtirishadi. Agar siz Rossiyaga ishlashga kelgan bo'lsangiz, muhojirlik kartasida kelishdan maqsad albatta ISH deb ko'rsatilishi shart.

Muhojirlik kartasini faqat chegarada qonuniy rasmiylashtirish mumkin. Hech qanday holatda muhojirlik kartasini qo'ldan olmang. Qalbaki muhojirlik kartasini taqdim etish ma'muriy jarima (7 000 rublgacha) bilan jazolanadi va 5 yil muddatga kirmaslik ta'qiqi bilan RF hududidan chiqarib yuboriladi (p. 1. и п.3 ст. 19.27 КоАП РФ). Qalbaki hujjatni bilib turib ishlatish uchun ham jinoiy javobgarlikka tortiladi (ч.3 ст.327 УК РФ).

Muhojirlik kartasi yo'qotilgan holatda, Siz 3 ish kuni davomida Управления по вопросам миграции МВД РФ ning eng yaqin bolimiga passport va kelish chiptasi bilan murojaat etishingiz zarur. Rossiyaga kelgan chiptangiz yoki o'tqazish talonini saqlashingizni tavsiya etamiz. Muhojirlik kartasi yo'qotilgan holatda u sizning qonuniy kelganingizni tasdiqlaydi.

2. Kelgan kuningiz **TIBBIY SUG'URTA POLISI (DMC)**ni rasmiylashtirimg . Uni har bir sug'urta tashkilotida, aeroportda, vokzalda yo «Pochti Rossii» bo'linmalarida sotib olish

mumkin. Polisdagi tibbiy yordam ko'rsatish shartlari va sug'urta shirkatining muloqot telefonlari ko'rsatilishi zarur.

Agar siz–EOIH (Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) a'zo-davlatlari fuqarosi bo'lsangiz, ishga joqlashishingizdan so'ng mehnat shartnomasi asosida majburiy tibbiy sug'urta polisi (OMC)ni bepul rasmiylashtirishingiz mumkin.

Sizga ДМС yo OMC polisi bergan sug'urta tashkiloti telefoni va nomini albatta esda tuting – agar siz polisingizni yo'qotib qo'ysangiz, sug'urta shirkatiga murojaat etib, uni tiklashingiz mumkin, yoki sizga tez tibbiy yordam zarur bo'lib qolgan holatda, uning rasmiylashtirilganini tasdiqlata olasiz .

Tibbiy polis nusxasini tayyorlab oling.

3. Leningrad viloyatiga kelganingizdan so'ng, siz yashaydigan manzilingiz bo'yicha **MUHOJIRLIK QAYDIDA TURISHINGIZ (REGISTRASIYADAN o'tishingiz)** zarur.

Chet ellik fuqaro turar eriga **kelgandan so'ng kelish sanasidan keyin 7 ish kunidan kechikmasdan muhojirlik qaydida turishi** zarur; EOIH (Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) a'zo-davlatlari fuqarolari– **30 kunda**; Tojikiston fuqarolari – **15 kunda**.

Sizga turar-joy beruvchi **qabul qiluvchi tomonning** muhojirlik qaydiga qo'yishi – bu bo'lishi mumkin:

- ♦ Leningrad viloyatida doimiy qaydga olingan RF fuqarosi;
- ♦ Leningrad viloyatida doimiy yashaydigan chet ellik fuqaro;
- ♦ chet ellik fuqaro – turar-joy egasi;
- ♦ huquqiy shaxs: ish beruvchi-tashkilot, mehmonxona.

Muhojirlik qaydiga qo'yish uchun Управления по вопросам миграции ГУ МВД РФ по Санкт-Петербургу и Ленинградской области ning hududiy bo'limiga yoki многофункциональный центр предоставления государственных услуг (МФЦ) ga murojaat etish mumkin.

Sizga quyidagi hujjatlar va ularning nusxalari zarur bo'ladi:

- ♦ pasport;
- ♦ muhojirlik kartasi;
- ♦ ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi;
- ♦ turar-joy binosidan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat (masalan, turar-joy ijarasi shartnomasi) nusxasi.

Muhojirlik qaydida turish uchun zarur:

♦ Kelganlik haqidagi varaqa-bildiruvni **ikki tomonida to'ldirish**. To'ldirilganidan so'ng varaqaning bir qismi УВМ ГУ МВД РФ ga beriladi, ikkinchi qismi chet ellik fuqaroda qoladi. Har ikki qismda ham **albatta** kelish manzili, qabul qilayotgan tomon va chet ellik fuqaromimg shaxsiy ma'lumotlari ko'rsariladi.

♦ Bildiruvni chet ellik fuqaro va RF fuqarosi (qabul qilayotgan tomon) pasportlari nusxasi va muhojirlik kartasi nusxasi bilan «Почту России» orqali УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО ga **jo'natish**. Bildiruvni shaxsan МФЦ ga yoki и УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО ning bo'linmasiga **topshirish** mumkin. BEPUL.

♦ УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО, МФЦ bo'linmalari xodimlaridan yoki «Почты России» dan qabul qilinganlikka oid belgi bo'lgan bildiruvning uzma varaqasini **olish**.

Kirish vizasis tartibdagi mamlakatlar fuqarolari uchun dastlabki muhojirlik qaydi chegaradan o'tilgan vaqtdan **90 kundan oshmasdan turib** rasmiylashtiriladi va bu **ishlash uchun huquq bermaydi**.

Ishga joylashgandan keyin muhojirlik qaydini УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО bo'linmalarida **mehnat shartnomasi amal qilishi (EOIH davlatlari fuqarolari uchun) yoki ishlash uchun patent to'langan muddatga qarab muntazam uzaytirib turish zarur.**

4. Ozarboyjon, Moldova, Tojikiston, Ozbekiston fuqarolari ishga joylashishlari uchun qonunga muvofiq **ISHLASH UCHUN PATENT olishlari zarur.**

EOIH mamlakatlari (Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) fuqarolariga – patent olish talab qilinmaydi. Ularning RF hududida vaqtincha bo'lishlari muddatini uzaytirish uchun mehnat va fuqarolik-huquqiy shartnomasi asos bo'ladi.

Patent rasmiylashtirishga hujjat topshirishingiz uchun siz **RUS TILI, RF TARIXI VA QONUNCHILIGINI BILISHGA OID SERTIFIKAT, TIBBIY XULOSA VA** giyohvandlik va atrofdagilarga xavf tugdiradigan yuqumli kasalliklar (COVID-19 ham qo'shiladi), shuningdek, VICH-infeksiya **BILAN OG'RIMAGANLIK BORASIDA SERTIFIKAT** olishingiz zarur bo'ladi.

Tojikiston fuqarolari shuningdek Tojikistonda rasmiylashtirilgan 086 formali ma'lumot ko'rsatishlari zarur.

Maxsus testdan o'tish markazlarida **test topshirish va rus tili, Rossiya tarixi va qonunchiligini bilish borasida sertifikat olish** mumkin. Markazga murojaat etilganda siz testdan o'tish uchun qaysi bank bo'lmasin, haqini to'lab, kvitansiya olishingiz mumkin.

Test topshirish va unga mustaqil tayyorlanish uchun sizga «Rossiyskiy testoviy konsorsium» testcons.ru sayti yordam beradi.

Agar sizda quyidagilar bo'lsa, test topshirish shart emas:

- ♦ SSSRdagi o'quv yurtini bitirganlik borasida 1991 yil 1 sentyabrigacha olingan diplom;
- ♦ MDH davlatlarining qaysi birida bo'lmasin, rus tili kurslari o'tilgan o'quv yurtlarini bitirganlik haqidagi diplom, uning notarial jihatdan tasdiqlangan rus tilidagi tarjimai va diplomning rus ta'lim standartlariga muvofiqligiga oid guvohnoma.